

FRANSUZ VA O'ZBEK BADIY ASARLARIDA MUOMALA MADANIYATI  
IFODALANISHINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI.

**Mamajonova Muxayyo Maxamadjon qizi**

*O'zDJTU, Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada muomala madaniyatining ikki turli mentalitetga mansub bo'lgan fransuz va o'zbek xalqlari o'rtasidagi muomalani ifoda etuvchi, xususan, kishilar o'rtasidagi muloqotning xushmuomalaligini ta'minlovchi so'zlar mazkur ikki xalq badiiy asarlari yordamida talqin qilinib, o'xshash va farqli jihatlari o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *muomala madaniyati, nutq, fransuz va o'zbek xalqlari, mentalitet, o'ziga xoslik, tizim, inson nutqi, nutq madaniyati.*

**Аннотация:** *В данной статье исследуются сходства и различия культуры общения с использованием произведений искусства этих двух народов, выражающих общение между французским и узбекским народами, принадлежащими к двум различным менталитетам, в частности, слова, обеспечивающие вежливость общения между людьми.*

**Ключевые слова:** *поведение, культура, речь, французский и узбекский народы, менталитет историческое творчество, идентичность, система, человеческая речь, речевая культура.*

**Annotation:** *This article explores the similarities and differences of the culture of treatment by using these two folk works of art, which express the treatment between the French and Uzbek peoples belonging to two different mentality, in particular the politeness of communication between people.*

**Key words:** *behavior, culture, speech, French and Uzbek peoples, mentality historical work, identity, system, human speech, speech culture.*

Muomala, insonlar o'rtasidagi munosabat, insoniyat paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan tabiiy jarayondir. Demak, insoniyatning ijod maxsuli bo'lgan badiiy adabiyotda ham muomala madaniyati muhim ro'l o'ynaydi.

O'zbek xalqiga xos xushmuomalalik, ochiq ko'ngillik, samimiylik, shirin so'zlilik sifatlarini o'zida to'laqonli, shuningdek, kishilar o'rtasidagi muomala madaniyatini yuqori darajada o'z qahramonlari tili bilan ifoda etib bergan buyuk adib Abdulla Qodiriydir. «O'tkan kunlar» asari ham shular jumlasidandir.

Jahon adabiyoti, xususan fransuz adabiyoti durdonalaridan biri bo'lgan "Graf Monte Kristo" asarida ham Aleksandr Duma tomonidan yuksak mahorat bilan muomala madaniyatining nozik qirralari namoyon etilgan. Ma'lumki, dunyo xalqlari orasida fransuz millati muomala madaniyatiga juda katta e'tibor beradigan xalqlardan biridir. Bu fransuz badiiy adabiyotida ham o'z aksini topgan.

Ma'lumki, fransuz va o'zbek xalqlari o'zining milliy an'analariga, qadryatlariga egadir. Ayniqsa, mentalitetlarning o'zaro farqligi kishilar o'rtasidagi muloqotda ham bir qator farqlarni namoyon qiladi. Eng avvalo, fransuzlar madame (honim ayollar

uchun), monsieur (janob), mademoiselle (honim qizlar uchun) so'zlari bilan murojaat qilishlari bilan ajralib turadilar, mazkur so'zlar o'zbek tilida ko'pincha kinoya, kesatq ma'nolarida qo'llanilishini kuzatish mumkin. Aleksandr Dumaning "Graf Monte Kristo" asaridan misollar:

- À la bonne heure! voilà une explication, dit Caderousse. Eh! bonjour, madame Dantès.»

- Mercédès salua gravement.

Tarjimasi:

- Mana, gap bunday bo'libdi! dedi Kadruss. -Juda boplab javob berdi! Salom, Dantes xonim.

- Un grand malheur, monsieur Morrel! répondit le jeune homme, un grand malheur, pour moi surtout: à la hauteur de Civita-Vecchia, nous avons perdu ce brave capitaine Leclère.

Tarjimasi:

- Baxtsizlik yuz berdi, janob Morrel, juda og'ir baxtsizlik! – javob qildi o'spirin, ayniqsa men uchun juda katta baxtsizlik: Chivita-Vekki oldida mashhur yoqimtoy kapitanimiz Leklerdan judo bo'ldik.

O'zbek abiyotidan misol:

Sevdim desam borimcha,

Nozlar qilar honimcha. (Akmal Davronov she'ridan parcha)

Shuningdek, fransuz tilida keng qo'llaniladigan s'il vous plait (marhamat, marhamat qilib sizlab gapirganda), s'il te plait marhamat (senlab gapirganda) so'zlarini ham madaniyat ila muomala qilish so'zlariga kiritish mumkin. Masalan:

- «Vous m'avez demandé un moment d'entretien? dit le marquis.

- Oui, passons dans votre cabinet, s'il vous plaît.»

Tarjimasi:

- Siz mendan uchrashuv vaqtini so'rayapsizmi? dedi markiz.

- Ha, marhamat, honzngizga o'tamiz.

Fransuz og'zaki nutqida va yozma nutqida keng qo'llaniladigan azizim, azizam (cher, chère) so'zlari o'zbek og'zaki va yozma nutqida juda kam qo'llanishini kuzatish mumkin.

- Mon cher Blacas, dit le roi, vous m'empêchez de travailler avec vos terreurs.

- Et moi, Sire, vous m'empêchez de dormir avec votre securite.

- Attendez, mon cher, attendez, je tiens une note tres heureuse sur le Pastor quum tracheret; attendez, et vous continuerez après.»

Tarjimasi:

- Azizim Blakas, -dedi qirol, -sizning bu vahimangiz ishimga halaqit beryapti.

- Sizning beparvoligingizdan mening uyquq qochyapti.

- To'xtang, azizim, to'xtang, menda bir fikr paydo bo'ldi: Pastor quum traheret (podachi aravada olib kelayotgandi) to'g'risida, to'xtang, gapingizni so'ng aytasiz.

Xalqimizda yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar degan naql bor, kishilar o'zaro muomlaga kirishyotganda ayniqsa yaxshi gapirib, shirinso'zlik bilan murojaat qilinsa

ko'plab muammolar hal etilishi mumkin, Shuningdek, so'zlarni oqilona o'rnida qo'llay bilish ham san'atdir. Mana shunday oqillikni Yusufbek hoji tilidan so'zlangan nutqdan topishimiz mumkin. U bir zumda ayolining butunlay Marg'ilonlik keliniga qarshiligini donolik bilan hal qilib, hatto uni kelini va qudalarini hurmat qiladigan darajaga olib chiqib qo'yadi:

- Marg'ilonga borma, deb yo'ldan qaytarib qolg'uchi men o'zim bo'ldim...

Sen bilan o'zimning muddaolarimiz bir, deb o'ylaganim uchun Otabekni koyib to'xtatganimdan so'ng senga kengash solmasdanoq qudalaringg'a xat yozg'an va kelin bolani Toshkentga olib kelishlarini so'rag'an edim. Haytovur so'zimni yerda qoldirmag'an o'xshaylar, bu kun qudadan bitta javob xati oldim. Aqlli kishilarning sadag'asi ketsang ham arziydir: "Shu choqg'acha sizlarga aytirmasdanoq ziyoratlaringizga borishimiz kerak edi. Xatingizni o'qub nihoyatda xijolat chakdik, ayniqsa kelin bolangiz bek oyimg'a qay yuz bilan qarayman, deb yuzini yuldi. Bu adabsizligini borg'andan so'ng albatta yuziga solmaslar, deb ishonamiz" deymiz...

Shuningdek, badiiy asarlardanani jozibador qiladigan qaxramonlarga berilgan tarifdir. Biz tahlil qilayotgan "O'tkan kunlar va Graf Monte Kristo" asarlari qahramonlarini nutq madaniyati juda yuksakligini yuqoridagi misollardan ham ko'rishimiz mumkin. Har ikki asarning bosh qahramonlari Edmon Dantes va Otabek mulohaza bilan fikrlovchi kishilardir. Ayniqsa, vaziyatdan silliqlik bilan, so'zamolligi bilan chiqish sahnalari juda ko'p uchraydi. Bir olmosni hadya qilish bilan Dantes o'zining donoligi bilan ichida yillab o'zini qiynab kelayotgan savollarga javob topadi.

O'zbek adabiyotida muomala mdaniyatini hushmuomalaligini samimiy tilaklar, yaxshi niyatlar bildirish bilan millatimizni ochiq ko'ngilli ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda qo'llaniladigan har bir so'zning o'rni, zalvori bor. Shunday ekan badiiy adabiyot durdonalarida har bir muloqot o'zining o'z madaniyatiga ega. Har bir qahramon o'zimizning hayotdagi birimizdir. Biz ham hayotimiz davomida turli vaziyatlarda turli odamlar bilan turli muloqotlarda bo'lishga majburmiz. Shu bois muloqot madaniyati nafaqat badiiy asarlarda o'z kundalik turmush tarzimizda ham eng yuqori darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alexandre Dumas «Le Comte de Monto-Cristo» 1998
2. Aleksandr Dyuma «Graf Monte Kristo» 2023
3. Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» 2019
4. B.Husanov, V.G'ulomov «Muomala madaniayti» 2009